

МУАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис



МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХАМ РУЎХЫЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Sayliyeva M. M. Jamiyat va shax rivojlantirishda milliy g'oya tamoyillari va mazmuni	160
Kenjayeva M. Sh. Milliy qadriyat tushunchasining mazmun va mohiyati	167
Xujaev M. I., Esanova K. I. Маҳмудхўжа Бехбудий жадид матуботи етакчиси	175
Axmadaliyeva M. Sh., Madraximov I. B. Milliy uyg'onish davri poetikasida yetakchi g'oya va obrazlar	182

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Imomberdiyev S. S. Matematika darslarida ekologik komponentdan foydalanishning ahamiyati	186
Қўнназаров А. Қ. Информатика фанидан мултимедиали электрон ўқув қўлланма яратиш ва фойдаланиш методикаси	192
Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T., Abdullayeva D. A. Differensiallarning taqribiy hisoblashlarga tatbig'i	198
Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T., Ravshanova R. M. Tarmoqlararo balans munosabatlarining iqtisodiy masalalarga tadbirlari	202
Shomurodov N. A. Taqribiy hisoblashlarda differensial hisob va darajali qatordan foydalanish	207

БАСЛАЎИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЎРБИЯ

Eshchanova G. O., Durdiyeva M. O. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ijodiy-kreativ faolligini shakllantirish usullari	212
Ozodova B. Raqamli texnologiya-MTT da zamonaviy zaruriyat	217
Eshchanova G. O., Shamuratova S. Q. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga kompetensiyaviy yondashuv	223
Xo'jamberdiyeva Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zaruriyati	230
Eshchanova G. O., Egamberdiyeva M. K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlari qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali nutq, muloqot kompetensiyalarini shakllantirish usullari	236
Nuradilova A. D. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda noan'anaviy dars usulining samarali natijalari	241
Jabborova O. M. Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va didaktikasining diagnostika masalalari	246
Mardonov Sh. Q. Boshlang'ich ta'lim metodikasi va samaradorligi diagnostikasi	254
Eshmanova N. N. Boshlang'ich sinflarda bayon va insho yozish klaster metodikasi mazmuni	262
Qarshiboyeva X. K., Muminov Z. Sh. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari	269
Jabborova O. M., Abdujalilova M. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasi	275
Tashpulatova D. M. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi	279
Жансаитова Ж. Б., Таджикибаев И. У. Бастауыш сынып оқушыларына арналган психологиялык-педагогикалык диагностика	287
Eshmanova N. N., Rahmonova M. Oilada bola tarbiyasida o'zaro munosabatlar tizimi pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari	293
Tojiboyeva G. R. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda "Rivoj" loyihasiga asoslangan innovatsion maktab imkoniyatlari	299



BOSHLANG'ICH SINFLARDA BAYON VA INSHO YOZISH KLAUSTER METODIKASI MAZMUNI

Eshmanova N. N.

ChDPU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: boshlang'ich, sinf, ta'lim, bayon, insho, yozish, metod, klasterlash, mazmuni.

Ключевые слова: начальный класс, образование, высказывание, сочинение, написание, метод, кластеризация, содержание.

Key words: primary school, education, statement, composition, writing, method, clustering, content.

O'zbekistonda ilm-fan, iqtisodiyot va yosh avlodning kamoloti uchun asos bo'ladigan Uchinchi Renessans barpo etish jarayoni boshlandi [1]. Mamlakatimizda Birinchi Renessans IX-XII asrlarda, Ikkinchi Renessans XIV-XV asrlarda kechganligi va Uchinchi Renessans esa XX asr I choragida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan boshlanganligi ma'lum [2]. Yangi O'zbekiston sharoitida Uchinchi Renessansni to'liq barpo etish va bunda boshlang'ich ta'lim ham yuksak talablarga mos bo'lishi talablari qo'yildi. Chunki boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi bo'lib, u 1-4- sinflarni qamrab oladi va unda ta'lim oluvchilarning aqliy, ma'naviy hamda ijtimoiy kamol toptirishning ilk bosqichi amalga oshiriladi [3]. Bunda boshlang'ich ta'limning quyidagi xususiyatlariga e'tibor berish kerak:

a) umumiy o'rta ta'limning ilk bosqichi – bu o'quvchi shaxsini bilim, ko'nikma va malaka olamiga olib kirishdir. Maktabgacha ta'lim bosqichi bolani maktabgacha tayyorlasa, boshlang'ich ta'lim esa uni bevosita ta'lim va tarbiya jarayoniga olib kiradi;

b) aqliy shakllantirish – bu bilim vositasida bolaning oilada va maktabgacha ta'lim muassasasida olgan aqliy ko'nikmasini rivojlantirishdir;

v) ma'naviy o'stirish – bu 7-11 yoshli o'quvchilarning axloqiy va ruhiy sifatlarini maqsadli tarkib toptirishdir;

g) jismoniy kamol toptirish – bu bola organizmini to'g'ri rivojlantirish va uni chiniqtirishdan iborat.



Boshlang'ich ta'limning bu xususiyatlari uning o'quvchi shaxsining hayotidagi ahamiyatini belgilaydi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonunida (2020-yil 23-sentyabr) boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan: "Ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirish" (9-modda). Bu vazifalarning mazmuni quyidagichadir:

1) Savodxon qilish. Odatda "savodxonlik" deganda o'quvchini qadimdan kelayotgan o'qish, yozish va hisobga o'rgatish tushuniladi [4]. Bu masalaning bir tomoni. Masalaning ikkinchi tomoni shundaki, hozirgi zamon O'zbekiston pedagogikasida savodxonlik tushunchasining ma'nosi keng tushunilmoqda. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida "O'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash" vazifasi qo'yildi [5]. Bu vazifa boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik asoslarini shakllantirish tushunchasida ularni "hayotga tayyorlashni ham nazarda tutishni taqozo etadi. Bunday yondashuv "savodxonlik" tushunchasini shunday idrok etishni ko'rsatadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish, yozish, hisobga o'rgatish va ularni hayotga tayyorlash.

2) Bilim o'rgatish. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonunimizga binoan, boshlang'ich sinf o'quvchilari umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan bilim asoslarini egallashi kerak. "Bilim" – bu o'quvchilarning tabiat, jamiyat va fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma'lumotlari va ularga taqdim etiladigan nazariy ma'lumotlar majmuidir [6]. Shu sababli boshlang'ich sinflarda aniq, tabiiy va gumanitar fanlarning dastlabki asoslari turli o'quv fanlari vositasida o'qitilmoqda. Bu o'ziga xos yondashuvdir. Ayni paytda, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv fanlari asossiz ravishda ko'payib ketmasligi kerak. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan 2020-2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimiga "Odobnoma" va "Vatan tuyg'usi" o'quv fanlari o'rniga yangi "Tarbiya" fani kiritildi [4]. Shuningdek, qarorda eslatib o'tilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-sonli Farmoniga ko'ra, ta'lim tizimi uchun yagona "Milliy o'quv dasturi" ishlab chiqilmoqda va unda "o'zaro uzviy bog'liq fanlarni birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish" vazifasi qo'yilgan.




3) Malakani shakllantirish. Mazkur Qonunga binoan, boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri 7-11 yoshli o'quvchilarning malaka asoslarini shakllantirishdir. "Malaka" – bu o'quvchilarda muayyan o'quv materialini chuqur o'zlashtirish natijasida hosil bo'ladigan avtomatlashgan mahoratdir [8]. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining malaka asosini qiziqish, tushunish va harakat tashkil qiladi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim olishga qiziqish, o'qigan va yozganlarini tushunish hamda ularni egallashga harakat qilish tuyg'ulari rivojlantiriladi.

4) Ko'nikma tarkib toptirish. Ushbu Qonunga ko'ra, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda ko'nikma asoslarini tarkib toptirish kerak. "Ko'nikma" – bu o'quvchining o'zlashtirgan bilimlari asosida muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyatidir [6]. Bunda "amaliy harakat" deganda boshlang'ich sinf o'quvchilarining intilish, munosabat va faolligi nazarda tutiladi. Unga ko'ra, o'quvchi olgan bilim va malakasiga tayanib amaliy faoliyatga intilishi, voqelik va hodisalarga munosabat bildirishi hamda samarali faollik ko'rsatishi kerak.

Zero, e'tibor berilsa, O'zbekiston ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim vazifalari va xususiyatlari aniq belgilab qo'yilgan. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim pedagogikasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishning quyidagi talablari belgilab qo'yilganligini eslatib o'tish joiz:

– boshlang'ich ta'lim davlat standartlariga qat'iy amal qilish;





- 7-11 yoshli o‘quvchilarning yosh, aqliy, ruhiy, ma’naviy va jismoniy xususiyatlarini hisobga olish;
- bola huquqlariga rioya etish;
- ta’lim va tarbiyaning samarasini baholab borish [10].

Ta’kidlarni chizmada quyidagicha tasavvur etish mumkin:

Boshlang‘ich ta’limning vazifalari, xususiyatlari va talablari

Boshlang‘ich ta’limning vazifalarini amalga oshirish va uning samaradorligiga erishish vositalari ko‘p. Ana shunday muhim vositalardan biri 1-4-sinf “Ona tili” darslarida yoziladigan insho va bayondir.

Insho – bu mavzuni o‘quvchi mustaqil yoritadigan yozma ish turlaridan biridir [6]. Pedagog olimlarning fikricha, insho – shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo‘lib, u o‘quvchida his-hayajon uyg‘otadi, aqliy mustaqillikka yo‘naltiradi, fikrlashga, ko‘rgan-kechirganlari va o‘zlashtirganlarini baholashga, voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab natija bog‘lanishini topishga, ularni qiyoslashga va xulosa chiqarishga o‘rgatadi [6]. Shu jihatdan insho so‘zi arabcha bo‘lib, “yaratish”, “bino qilish” va “boshlash” ma’nolarini anglatadi. Insho aniq reja asosida yoziladi va u quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- o‘quvchining his-g‘ayajon tuyg‘usini (emotsiyani) o‘stirish;
- o‘quvchining aqlini (intellektni) rivojlantirish;
- o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish;
- o‘quvchining voqelik va hodisalarni baholash ko‘nikmasini shakllantirish.


Shu ma’noda insho yozish mazmuni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining his-hayajon va aqliy tuyg‘ularini o‘stirish, ularni mustaqil fikrlash va baholashga o‘rgatish bilan belgilanadi. Inshoning asosiy xususiyati uning ijodiy ishligidir.

Bayon – bu matnni o‘qib yoki aytib berilganlar asosida yozib chiqiladigan yozma ish turlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning fikrlashini rivojlantirishni nazarda tutadi [6]. Mazkur so‘z ham arabcha bo‘lib, “ifodalash”, “yoritish” va bildirish ma’nolarini anglatadi hamda 2-sinf dan boshlab o‘quvchilar bayon yozishga o‘rgatiladi. Pedagog olimlarning fikricha, bayon yozishdan maqsad o‘qilgan matnni butun detallari va bog‘lanishlari bilan o‘quvchilar yodida mustahkamlash, namunaviy matnning mazmuni va tilini o‘zlashtirish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat [14]. Shu ma’noda bayon yozma ishi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- o‘quvchining muayyan matnni tushunish ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘quvchini tahlilga o‘rgatish;
- o‘quvchining xotirasini mustahkamlash;
- o‘quvchining yozma nutqini tarkib toptirish.



Zero bayon yozish mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilarining muayyan matnni tushuntirish, xotirasini mustahkamlash, tahlil qilish va yozma nutqini tarkib toptirish bilan belgilanadi. Bayon yozish ham ijodiy ish turlaridan biridir.



Boshlang'ich sinflarda insho va bayon yozish mazmuni

Bu yondashuv quyidagicha idrok etiladi:

1. His-tuyg'u (emotsiya)ni o'stirish. "Hissiyot" – shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga munosabatlaridan kelib chiqadigan kechinmalaridir [6]. Shu jihatdan hissiyot (emotsiya) 7-11 yoshli o'quvchilar uchun muhim element bo'lib, uni to'g'ri o'stirish bilan ularda voqelik (a), odamlar (b) va o'z-o'ziga nisbatan oqilona munosabatni shakllantirishga erishish mumkin. Insho va bayon o'quvchi shaxsidagi mana shu elementni o'stirishga ko'maklashuvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

2. Aqliy rivojlantirish (intellekt). "Aql" – inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatlarini boshqarib turadigan faoliyati [6]. Shu sababli 7-11 yoshli o'quvchilarni aqliy rivojlantirish va ularda aqliy qobiliyatni o'stirishda insho va bayon yozma ish turining ahamiyati kattadir. Bu ishni bajarish jarayoni o'quvchilar voqelikni tasavvur qiladi va unga bo'lgan munosabatini boshqarishni o'rganadi.

3. Mustaqil fikrlashga o'rgatish. "Fikrlash" – bu muayyan voqea-hodisa haqida ma'lum bir xulosaga kelish uchun mulohaza yuritish va o'ylashdir [6]. Shu ma'noda insho va bayon o'qitish vositalari 7-11 yoshli o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini talab darajasida shakllantirish imkonini beradi. Bunda "mustaqil" sifatida o'quvchilarning chuqur mulohaza yuritish va o'ylash



vositasida voqeilik (hodisa) to'g'risida to'g'ri xulosaga kelish ko'nikmasini anglatadi.

4. Matnni tushunishga o'rgatish. “matn” – yozilgan asar, insho, nutq va darslikdagi o'quv materialidir [6]. Shu jihatdan 7-11 yoshli o'quvchilar aytib berilgan biror matn yoki biror mavzuda insho va bayon yozish bilan ularning mazmun-mohiyatini qanday tushunganliklarini namoyon qiladi. “O'qish” va “Ona tili” fanlarining darslari vositasida matnni yoki mavzuni tushunish ko'nikmasini egallaydi.

5. Xotirani mustahkamlash. “Xotira” – o'quvchining avval esda qoldirgan voqea va hodisalarni takror idrok qilish orqali esga tushirish qobiliyati [6]. Shu ma'noda insho va bayon yozma ishlari voqea-hodisalarni idroklar va ularni eslash vositalaridan biridir. Bu bilan o'quvchilarda idrok va eslash orqali xotira mustahkamlanadi. Xotiraning shakllanishi bolada bilim, ko'nikma va malakaning tarkib topganligidan dalolat beradi.

6. Tahlilga o'rgatish. “Tahlil” – muayyan obyekt yoki voqea – hodisani har tomonlama o'rganish va chuqur tekshirishdir [6]. Umumta'lim o'rta maktablarining 7-11 yoshli o'quvchilari biror matn yoki mavzuni o'rganish va tekshirish vositasi bilan insho va bayon yozishadi. Bu bilan ularda tahlil ko'nikmasi shakllanadi.

7. Yozma nutqni tarkib toptirish. “Yozma nutq” – bu fikrni yozma matn vositasida bayon qilishdir [6]. Shu jihatdan 7-11 yoshli o'quvchilar insho va bayon yozish vositasida fikrni yozish orqali ifodalashni o'rganadi. Bu ko'nikma g'oyatda muhim muhim bo'lib, yozma nutq shaxsning butun hayoti davomida muhim o'rin tutadi.

8. Baholashga o'rgatish. “Baholash” – o'quvchining ob'ekt, voqeilik va hodisani bilim, ko'nikma hamda malaka asosida aniqlashdir [6]. Insho va bayon 7-11 yoshli o'quvchilarning baholash ko'nikmasini shakllantirishdagi muhim vositalardan biridir. Bunda sifat o'zgarishi asosiy masala hisoblanadi.

Zero hissiyot, aqliy qobiliyat, mustaqil fikr, matnni tushunish, xotira, tahlil, yozma nutq va baholash ko'nikmalarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishda insho va bayon o'ziga xos vosita hisoblanadi. Bu konseptual yondashuv tadqiqotimiz negizini tashkil qiladi.

Shunday qilib insho va bayon yozish mazmuni pedagogik hamda psixologik ko'nikmalarni shakllantirish vositasi ekanligi bilan ahamiyatga ega. Bu masala har tomonlama innovatsion tarzda tadqiq etib borish taqozo etiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiy kuni munosabati bilan so'zlagan Murojaat nutqi. // “Halq so'zi” gazetasi. 2020-yil 1-oktyabr soni.



2. Shu joyda. Yana qarang: Mes A. Musulmanskiy Renessans. – M.: “Nauka”. 1966. Xayrullaev M. Uygʻonish davri va Sharq mutafakkirlari. – T.: “Fan”. 1971. Kojrad N. Zapad i Vostok. – M.: “Nauka” 1992 va h.k.

3. Pedagogik atamalar lugʻati. Tuzuvchilar R.Djuraev, R.Safarova va boshq. – T.: “Fan”. 2008. 23-bet.

4. Abdullaeva Q., Nazarov K., Yoʻldosheva Sh. Savod oʻrgatish darslari. – T.: “Oʻqituvchi”. 1996. Shu mualliflar. Savod oʻrgatish metodikasi. – T.: “Oʻqituvchi”. 1996 va h.k.

5. Qosimova K. Va boshq. Ona tili oʻqitish metodikasi. – T.: “Noshir”. 2009. 330-bet

6. Yuldashovich K. A., Kholi Y. A MODEL FOR THE FORMATION OF PRIMARY EDUCATION STUDENTS’ CAREFUL ATTITUDE TO NATURE IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES // European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 68-74.

7. Yuldashovich K. A. STEAM INTEGRATED EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN ENHANCING ECO-LEARNING EFFECTIVENESS // European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumiy oʻrta taʼlimning ilk bosqichi – bu oʻquvchi shaxsini bilim, koʻnikma va boshlangʻich taʼlim esa uni bevosita taʼlim va tarbiyash, aqliy shakllantirish – bu bilim vositasida bolaning oilada va maktabgacha taʼlim muassasasida olgan aqliy koʻnikmasini rivojlantirish, oʻquvchilarning ahloqiy va ruhiy sifatlarini kamol toptirish, rivojlantirishga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье первой ступени общего среднего образования являются знания, умения и начальное образование личности учащегося, а непосредственным образованием и воспитанием его, психическое формирование – воспитание ребенка в семье и до школы с помощью этих знаний и направлена на развитие умственных способностей, приобретенных в образовательном учреждении, совершенствование и развитие нравственных и духовных качеств обучающихся.

SUMMARY

In this article, the first stage of general secondary education is the knowledge, skills and primary education of the student’s personality, and the direct education and upbringing of him, mental formation is the education of the child in the family and before school with the help of this knowledge. It is aimed at developing the mental skills acquired in the educational institution, improving and developing the moral and spiritual qualities of the students.